

No 120/6

2025 y. 20 noyabr

**“O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki
tizimida xaridlarni tashkil etish va amalga oshirish
tartibi”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni va qonunosti hujjatlari, Xalq banki Boshqaruvining 2024-yil 10-yanvarida 3/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida ichki qoidalarni tayyorlash va qabul qilish tartibi” talablari asosida Xalq banki tizimida xaridlarni amalga oshirish jarayonlarini optimallashtirish va bank markaziy apparatining xarid komissiyalari faoliyatini tartibga solishni yanada takomillashtirish maqsadida, bank Boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqilgan ichki qoidalarining amaldagi qonunchilikka mosligini ta‘minlash bo‘yicha Ekspert guruhining 2025-yil 28-oktabrdagi 78-sonli bayoni ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

“O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida xaridlarni tashkil etish va amalga oshirish tartibi” **1-ilovaga**;

“O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki markaziy apparati katta xarid komissiyasi tarkibi” **2-ilovaga**;

“O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki markaziy apparati kichik xarid komissiyasi tarkibi” **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan bank Boshqaruvining 2024-yil 30-apreldagi 50/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan 1 va 3-ilovalar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. **Ijro nazorati departamenti** (F. Kurbanov) ushbu qaror nusxasini bank markaziy apparatining barcha tarkibiy bo‘linmalari va bankning mintaqaviy hamda bank xizmatlari markazlariga ijro va ma‘lumot uchun yetkazilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish **Boshqaruv Raisi o‘rinbosari v.b. F. Ruziyev** va **Kompleks rahbari K. Shernazarov** zimmlariga yuklansin.

Boshqaruv Raisi v.b.



Sh. Atabayev

**O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida
xaridlarni tashkil etish va amalga oshirish
TARTIBI**

Mazkur tartib O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-sonli Farmoni, 2024-yil 10-iyuldagi "Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-249-sonli, 2022-yil 25-iyuldagi "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-332-sonli, 2018-yil 27-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-sonli, 2020-yil 21-avgustdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4812-sonli Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-fevraldagi "Davlat xaridlarini korporativ bank kartalari orqali amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 108-sonli, 2024-yil 20-dekabrda "2025-2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 865-sonli, 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2021-yil 9-oktabrda 3324-son bilan ro'yxatga olingan "Korporativ buyurtmachilarning xarid komissiyalari tomonidan dastlabki malaka tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi namunaviy nizom va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki (keyingi o'rinlarda – Bank) tizimida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:


Qonun – O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni;

Nizom – "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida" nizom (Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sonli qarori bilan tasdiqlangan);

buyurtmachi – xaridlarini amalga oshiruvchi Bank markaziy apparati va uning mintaqaviy markazlari;

xaridlar – buyurtmachining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta'minlash jarayoni;

tashabbuskor bo'linma – yo'nalishi bo'yicha tovar (ish yoki xizmat)larni xarid qilish (amalga oshirish) yuzasidan tashabbus bilan chiqqan markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari va mintaqaviy markazlar;



mintaqaviy markaz – “Universal”, “Standart”, “Smart” va “Premium” BXMLar hamda “Yagona kassa markazi” faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish jarayonlarini amalga oshiruvchi hududiy boshqarma ma'muriyati;

BXM (Bank xizmatlari markazi) – Bank bilan yagona bank kodiga ega bo'lgan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, Bank binosida yoki Bank binosidan tashqarida joylashgan, bank xizmatlarini ko'rsatuvchi Bankning tarkibiy bo'linmasi;

xarid qilish tartib-taomili – xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq harakatlar majmui;

xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'linma (keyingi o'rinlarda – Mas'ul bo'linma) – Bosh amaliyotlar boshqarmasi Ma'muriy-xo'jalik departamenti. Mas'ul bo'linma Bank tizimidagi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etadi va o'tkazadi hamda jarayonlarini muvofiqlashtiradi;

dastlabki malaka tanlovi – xarid qilish hujjatlarida belgilangan texnik, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarga muvofiq bo'lgan xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazishga qo'yiladigan malakali xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tanlab olishning xarid komissiyasi tomonidan o'tkaziladigan tartib-taomili;

maxsus axborot portali (keyingi o'rinlarda – portal) – operatorning davlat xaridlari o'tkazilishini, davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlar, davlat xaridlari yakunlari, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflari haqidagi axborotning va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa axborotning elektron shaklda joylashtirilishini hamda ko'rilishini, shuningdek, elektron davlat xaridlari o'tkazilishini ta'minlovchi veb-sayti va maxsus elektron platformasi;

elektron davlat xaridlari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli;

elektron do'kon – davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarni elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo'yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion – davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo'lib, uni tashkil etish chog'ida narx g'olibni aniqlashning yagona mezon bo'ladi;

kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili – davlat xaridlarini xarid qilish tartib-taomillarining ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kamida uchta potensial yetkazib beruvchisidan narxlarni so'rash orqali amalga oshirishning raqobatli usuli;

eng yaxshi takliflarni tanlash – xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

tender – davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida davlat xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo'lib, uning natijalariga ko'ra davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g'olib deb topiladi;

ikki bosqichli davlat xaridlari – texnik jihatdan murakkab bo'lgan muayyan qiymatli tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) bir shartnoma bo'yicha ikki o'zaro bog'liq bosqichda o'tkaziladigan davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

e'lon – davlat xaridlarini amalga oshirish usuli, talablari va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko'rsatilgan, maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining

elektron tizimiga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladigan bo'lajak davlat xaridlari to'g'risidagi axborot;

g'olib – xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko'ra taklifi eng maqbul deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi;

xarid komissiya – tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi doirasida tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlarini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha bank markaziy apparatda tashkil etilgan kollegial organ;

xarid komissiyasining mas'ul kotibi – xarid komissiyasining tezkor faoliyatini tashkil etuvchi ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan xodim;

texnik topshiriq – buyurtmachi tomonidan tovarning (ishning, xizmatning) asosiy maqsadiga, uning tavsifiga qo'yiladigan talablar, davlat xaridining birlamchi ma'lumotlari, maqsadlari va vazifalari, tovarni yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish muddatlari, sifat kafolatlari, texnik tavsifi va hajmi, hisobot shakllari (zarur hollarda), tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) qo'yiladigan talablarning asoslantirilishi, ekvivalent ko'rsatkichlar, iqtisodiy, boshqa maxsus talablarni o'z ichiga olgan hujjat;

tavsiyaviy narx – birja kotirovkalari, tayyorlovchi zavodlar, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) ishlab chiqaruvchilari yoki ularning rasmiy dilerlari (distribyutorlari) va boshqa yetkazib beruvchilar bergan tijorat takliflari, prays-varaqlar, ochiq axborot manbalaridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda belgilanadigan narx ko'rsatkichlarining o'rtacha yoki eng past darajasini o'rganish yakunlari bo'yicha dastlabki hisob-kitoblarga asoslangan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) narxi.

2-bob. Xarid qilish tartib-taomillari

2. Bank tizimi ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish tartib-taomillarini turlarini tanlash, tashkil etish va o'tkazish, portalga e'lonlarni, buyurtmanomalarni hamda davlat xaridlari va ularning yakunlari to'g'risidagi boshqa axborotni joylashtirish Qonun, nizom va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar hamda ushbu tartibga asosan amalga oshiriladi.

3. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari quyidagilardan iborat:

elektron kooperatsiya portali;

elektron do'kon;

kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili;

boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion (keyingi o'rinlarda – auksion);

eng yaxshi takliflarni tanlash (keyingi o'rinlarda – tanlash);

tender;

ikki bosqichli davlat xaridlari;

to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari.

3-bob. Bank tizimida xarid oldi jarayonlarni amalga oshirish turlari va mexanizmi

1-§. Bank tizimida xarid oldi jarayonlarni amalga oshirish turlari

4. Bank tizimida xarid oldi jarayonlarni tashkil etish va amalga oshirish turlari quyidagilardan iborat:

- ruxsat talab etilmaydigan xaridlar;
- vakolatlar doirasida ruxsat talab etiladigan xaridlar;
- bank biznes-rejasida ko'zda tutilmagan xaridlar;
- milliy valyutadagi korporativ bank kartasi bo'yicha xaridlar.

2-§. Ruxsat talab etilmaydigan xaridlar

5. Markaziy apparatda va mintaqaviy markazlarda yoki bank xizmatlari markazlarida quyidagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridini amalga oshirishga ruxsat talab etilmaydi hamda bank biznes-rejasi doirasida mazkur tartib asosida amalga oshiriladi:

1) Bankning joriy faoliyati bilan bog'liq kommunal xizmatlari (elektroenergiya, tabiiy gaz, issiq suv va issiqlik energiyasi, sovuq suv va kanalizatsiya, chiqindilarni tozalash va olib ketish bilan bog'liq xizmatlar, boshqaruv servis kompaniyalari xizmati hamda hisoblagichlarni almashtirish, sinash va standartdan o'tkazish bo'yicha tovar va xizmatlar), dezinfeksiya va deratizatsiya xizmatlari, texnik kuzatuv va qo'riqlash xizmatlari, pochta, aloqa, internet xizmatlari uchun xarajatlar;

2) avtotransport vositalarini ro'yxatga (qayta ro'yxatga) olish va texnik ko'rikdan o'tkazish, avtotransport vositalarini joriy ta'mirlash xarajatlari, bunda nuqson dalolatnomaga asosan bir avtotransport vositasi uchun bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz besh baravarigacha amalga oshirilishi mumkin;

3) bank (banklararo) xizmatlar va operatsiyalar, majburiy sug'urtalar va "Har bir oila-tadbirkor" dasturi doirasida ajratiladigan kreditlar sug'urtasi, Markaziy bank va uning hududiy Bosh boshqarmalari hamda ularga bo'ysunuvchi Inkassatsiya birlashmasi, Axborotlashtirish bosh markazi va shu kabi tashkilotlar uchun xarajatlar;

4) Milliy banklararo protsessing markazi va Yagona umumrespublika protsessing markazi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar (tranzaksiyalar, bankomatlar, terminallar ta'mirlash va boshqa xizmatlar) hamda bank qurilmalari, terminal, bankomat va avtomatlashtirilgan depozit mashinkalariga xizmat ko'rsatish, bank qurilmalari uchun noturar joyi (inshootni) ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar;

5) bank dasturiy mahsulotlarini kuzatuv, iABS dasturiy mahsulotini funksional kengaytirish, elektron raqamli imzo olish, elektron hujjat aylanishining avtomatlashtirilgan axborot tizimi uchun to'lovlar;

6) sudda ishtirok etish uchun hamda sudning qarorlariga asosan Bankka nisbatan qo'llanilgan davlat bojlari, pochta xarajatlari, yig'imlar, maxsus savdo maydonchalaridagi elektron (birja) savdolari uchun zakalat mablag'i hamda vositachilik to'lovi, sotiladigan Bank mol-mulklarini baholash xizmatlari, Bankka tegishli binolarga (inshootlarga) doir kadastr hujjatlari bilan bog'liq xarajatlar;

7) bank faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq xizmat safarlari va boshqa holatlardagi yashash xarajatlari, davlat arxiviga hujjatlarni topshirish, davlat ekspertizalari, notarius xizmatlari, bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muhrlarni tayyorlatish xizmatlari.

Bunda mazkur bandning 4 va 5-kichik bandlarida keltirilgan xarajatlar uchun haqiqatda ehtiyoj mavjudligi va tahlili yuzasidan markaziy apparat tegishli tarkibiy bo'linmalardan xulosalar olinadi.

6. Ushbu turdagi xaridlar bilan markaziy apparatda Bosh amaliyotlar boshqarmasi Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlar boshqarmasi hamda mazkur tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan ro'yxat bo'yicha to'g'ridan to'g'ri shartnomalar doirasida mintaqaviy markazlarda Moliya bo'limi shug'ullanadi.

7. Ruxsat talab etilmaydigan xaridlarni amalga oshirish yuzasidan mintaqaviy markazlar va bank xizmatlari markazlarining mazkur tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan ro'yxat bo'yicha to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish vakolati bo'lmagan xaridlari bilan ularning talabnomalariga asosan Bosh amaliyotlar boshqarmasi Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlar boshqarmasi shug'ullanadi.

3-§. Vakolatlar doirasida ruxsat talab etiladigan xaridlar

8. Tashabbuskor bo'linmalar o'z ehtiyojlari hamda faoliyat yo'nalishi bo'yicha zarur bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi to'g'risidagi murojaatni, agar rejalashtirilgan xarid boshlang'ich narxi:

bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan kam bo'lsa, Bosh amaliyotlar boshqarmasi, Ma'muriy-xo'jalik departamentiga xizmat yozishmasi (xat) yoki bildirishnoma orqali;

bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravari va undan yuqori bo'lsa, bank boshqaruvi raisiga yoki sohani nazorat qiluvchi rais o'rinbosarlariga yoki kompleks rahbarlariga bildirishnoma (xat) orqali kiritadi.

9. Xizmat yozishmasi (xat) va bildirishnoma tashabbuskor bo'linma tomonidan tayyorlanadi. Tashabbuskor bo'linmalar xaridga oid o'z bildirishnomalarida, xizmat yozishmalarida (xatda) amalga oshirilishi kutilayotgan xaridning aniq maqsadi, haqiqatdan zarurligini ko'rsatishi hamda xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar va xizmatlar) turiga qarab bildirishnomada, xizmat yozishmasida (xatda) quyidagilar ilova qilinishi kerak:

bank biznes-rejasida mavjudligini asoslovchi hujjat;

texnik topshiriq yoki texnik xususiyat;

nuqson dalolatnoma;

zarur hollarda birlamchi narxi va o'sha narxning manbasi;

Shuningdek, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xususiyatidan kelib chiqib tasdiqlovchi va asoslovchi har qanday boshqa hujjatlar talab etilishi mumkin.

Bunda tashabbuskor bo'linma tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan kam bo'lgan operatsion xarajatlar xaridining bank biznes rejasida mavjudligi yuzasidan asoslovchi hujjat taqdim etilmasdan amalga oshiriladi. Mazkur miqdor xarajatlarning dinamik o'zgarishidan kelib chiqqan holda Moliyaviy hisobotlar va nazorat departamentining tegishli bildirishnomasiga asosan oshirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

10. Bank mintaqaviy markazlar tasarrufidagi bank xizmatlari markazlari va yagona kassa markazlari o'z ehtiyojlari hamda faoliyat yo'nalishi bo'yicha zarur bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi to'g'risidagi murojaatni mintaqaviy markazlarga yuboradi.

11. Rad etilmagan xizmat yozishmasida (xatda) va bildirishnomada keltirilgan xaridlarga quyidagi tartibda ruxsat beriladi va amalga oshiriladi:

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridiga Bosh amaliyotlar boshqarmasi Ma'muriy-xo'jalik departamenti direktorining ruxsat yoki qayta ishlash yoki rad etish yuzasidan Mas'ul bo'linmaga ust xat bilan yo'naltirish asosida;

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan besh ming baravarigacha bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridiga Bank boshqaruvi raisi yoki Ma'muriy-xo'jalik departamentini nazorat qiluvchi rais o'rinbosari (kompleks rahbari) tomonidan imzolangan farmoyish yoxud ruxsat xati asosida;

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining besh ming baravaridan ellik ming baravarigacha bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi ushbu xarid yuzasidan Bank boshqaruvining alohida qarori asosida;

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining ellik ming baravaridan yuqori bo'lgan (import) tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi maqsadga muvofiqligi Bank Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilib ma'qullangandan keyin Kuzatuv kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

12. Bosh amaliyotlar boshqarmasi Ma'muriy-xo'jalik departamenti Ishlar boshqarmasi Buyurtmalar bilan ishlash bo'limi xarid oldi jarayonlarni amalga oshirish va tashkil etishda ishchi organ hisoblanadi.

Ishchi organ quyidagilar vazifalarni amalga oshiradi:

xarid yuzasidan Bank tizimidagi murojaatlarni ko'rib chiqadi;

zarur hollarda tegishli tarkibiy bo'linmalardan xulosalar oladi;

bozor narxlariga ko'ra tavsiyaviy narxlarni belgilaydi;

zarur hollarda xarid yuzasidan bank tizimidagi murojaatlarni umumlashtiradi;

xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlarini belgilash yuzasidan takliflar kiritadi;

xarid tartib-taomilini tashkil etishda ishtirok etadi;

xaridlarni amalga oshirish yuzasidan farmoyishlarni tayyorlaydi.

13. Rad etilmagan va barcha talab qilingan hujjatlari mavjud xizmat yozishmasi va bildirishnomani (xatni) ishchi organ tomonidan ko'rib chiqish va xaridlarni amalga oshirish yuzasidan taklif va farmoyish (ruxsat xati) kiritish muddati ko'pi bilan 10 ish kunidan oshmasligi lozim.

14. Xaridlar yuzasidan farmoyishda (ruxsat xatida) tashabbuskor bo'linmalar nomi, xarid turi, xaridlar maqsadi, tovarlarning va xizmatlarning (ishlarning) texnik shartlari, miqdori hamda tavsiyaviy narxlar ko'rsatiladi.

15. Tashabbuskor bo'linma Mas'ul bo'linmaning o'zi bo'lgan hollarda mazkur tartibning 11-bandi talablariga asosan to'g'ridan to'g'ri farmoyish yoki bildirishnoma tayyorlanadi va ushular asos bo'lib hisoblanadi.

16. Ma'muriy-xo'jalik departamenti Ishlar boshqarmasi Buyurtmalar bilan ishlash bo'limi tomonidan rad etilmagan xarid oldi hujjatlar kompleksini xaridlarni amalga oshirish uchun Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlar boshqarmasi Xaridlarni tashkil etish bo'limiga yo'naltiradi.

17. Xarid predmetidan kelib chiqib, rejalashtirilgan xaridlar tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari orqali amalga oshirilganda, Bank boshqaruvi raisiga yoki sohani nazorat qiluvchi rais o'rinbosarlariga yoxud kompleks rahbarlariga kiritilgan bildirishnoma yoki Bank boshqaruvi qarori asos bo'lib hisoblanadi.

18. Bank boshqaruvi qarori vakolati doirasidagi xaridlar yuzasidan qaror loyihasini tayyorlash uchun mas'ul – yo'nalishi bo'yicha markaziy apparat tashabbuskor bo'linmasi hisoblanadi.

4-§. Bank biznes-rejasida ko'zda tutilmagan xaridlar

19. Markaziy apparat va mintaqaviy markazlarda Bank biznes-rejasida ko'zda tutilmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridini amalga oshirish uchun tashabbuskor

bo'linmaning bildirishnomasi hamda mintaqaviy markazning murojaatiga asosan xarid masalasi quyidagicha ko'rib chiqiladi:

bankning biznes-rejasida ko'zda tutilmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi Bank boshqaruvi qaroriga asosan Bank biznes-rejasida mazkur xarajatlarga belgilangan jami mablag'lar summasidan oshmagan holda, amalga oshirilmagan loyihalar yoki loyihalarning tejab qolingan qismini qayta taqsimlash orqali amalga oshiriladi;

bankning biznes-rejasida operatsion va kapital xarajatlarga belgilangan reja ko'rsatkichlaridan ortib ketadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi Bank boshqaruvi muhokamasida ko'rib chiqiladi hamda biznes-rejaga o'zgartirish kiritgan holda xaridlarni amalga oshirish ma'qullanadi yoki rad etiladi.

Bank boshqaruvi qarori bilan ma'qullangan xaridlar Bank Kuzatuv kengashida ko'rib chiqiladi va biznes-rejaga o'zgartirish kiritish bo'yicha Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi yoki rad etiladi.

20. Xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) Bank biznes-rejasida mavjud yoki mavjud emasligi Moliyaviy hisobotlar va nazorat departamentining xulosasi asosida aniqlanadi.

21. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi mazkur tartibning 11-bandida ko'rsatilgan shartlar asosida amalga oshiriladi.

22. Bank joriy biznes-rejasiga 1-oktabr sanasiga qadar xaridlar yuzasidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish mumkin.

5-§. Milliy valyutadagi korporativ bank kartasi bo'yicha xaridlar

23. Milliy valyutadagi korporativ bank kartasi bo'yicha xaridlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-fevraldagi 108-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat xaridlarini korporativ bank kartalari orqali amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom talablari asosida va umumiy qoidalarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

24. Milliy valyutadagi korporativ bank kartasidan (keyingi o'rinlarda – xarid kartasi) foydalanish huquqiga ega bo'lgan hisobdor shaxslar markaziy apparatda Ma'muriy-xo'jalik departamenti Ishlar boshqarmasi Ta'minot bo'limi xodimlari, mintaqaviy markazlarda yengil avtotransport haydovchilari hamda bank rahbariyati yoki mintaqaviy markaz boshlig'ining alohida buyrug'i (farmoyishi) bilan birlashtirilgan bank xodimlari hisoblanadi.

25. Xarid kartasiga mablag'larning ilk bor hisobga kiritilishi va keyinchalik to'ldirilishi uchun Bank boshqaruvining qarori bilan tasdiqlangan limitlar yoki Bank boshqaruvi raisi o'rinbosarining (kompleks rahbarining) tegishli farmoyishi asos bo'ladi.

26. Xarid kartasidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan hisobdor shaxslar qonunda belgilangan davlat xaridlarining asosiy prinsiplariga, xususan, moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi prinsipiga muvofiq amalga oshirishi shart.

27. Xarid kartasidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan hisobdor shaxslar xarid kartasidagi mablag'lar hisobidan davlat xaridlari qonunchilik talablari doirasida amalga oshirilishi hamda undagi mablag'lar maqsadli sarflanishiga, shuningdek, xarid kartasidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

4-bob. Xaridlarni amalga oshirish

1-§. Mintaqaviy markazlarda amalga oshiriladigan xaridlar

28. Ruxsat talab etilmaydigan xaridlar hamda mazkur tartibning 11-bandida belgilangan tartibda ruxsat etilgan Bank mintaqaviy markazi murojaatlarida keltirilgan xaridlar,

Bank markaziy apparatida markazlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi, bundan mazkur tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati mustasno.

29. Mintaqaviy markazlar va bank xizmatlari markazlari mazkur Tartibning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Bankning mintaqaviy markazlar va bank xizmatlari markazlari tomonidan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatiga asosan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzishi mumkin.

30. Mintaqaviy markazlarga, ularning to'laqonli faoliyat olib borishiga ta'sir ko'rsatuvchi kommunikatsiyalar, mexanizmlar, jihozlar va boshqa asbob-uskunalarining ishdan chiqishi holatlarida avariyalarni bartaraf etish uchun bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lgan qiymatdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish orqali yoki xarid kartasi orqali xaridlarni amalga oshirilishiga ruxsat beriladi.

Bunda, mintaqaviy markazlar ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so'rash orqali, xaridni amalga oshirish uchun mazkur tartibning 8-bandiga asosan murojaatni kiritadi va mazkur tartibning 11-bandida belgilangan tartibda ruxsat beriladi.

31. Bank mintaqaviy markazi Moliya bo'limi tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

mazkur tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan ro'yxat bo'yicha to'g'ridan to'g'ri shartnomalarni rasmiylashtiradi;

to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran besh ish kuni ichida portalga to'g'ri va aniq joylashtiradi;

hisob-faktura va dalolatnomalarni kelishishda ishtirok etadi;

talabnoma asosida tovarlarni ajratadi;

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilishda ishtirok etadi;

tasarrufidagi bank xizmatlari markazidan xarid yuzasidan murojaatlarni qabul qiladi va jamlagan holda markaziy apparatga yo'llaydi;

shartnoma va boshqa xaridlariga oid hujjatlarning saqlanishini ta'minlaydi.

32. Bank mintaqaviy markazlarida, bank xizmatlari markazlarida markaziy apparatning ruxsati talab qilinadigan hollarda, rozilik olmasdan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi amalga oshirilganda javobgar mintaqaviy markaz boshlig'i va Moliya bo'limi hamda bank xizmatlari markazi rahbari hisoblanadi.

33. Bank mintaqaviy markaziga tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarining elektron do'kon va auksion turlaridan foydalanish uchun Bank boshqaruvi raisining yoki Ma'muriy-xo'jalik departamentini nazorat qiluvchi rais o'rinbosarining (kompleks rahbarining) xati bilan bir martalik ruxsat berilishi mumkin.

2-§. Markaziy apparatda markazlashgan holda amalga oshiriladigan xaridlar

34. Bosh amaliyotlar boshqarmasi Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlar boshqarmasi Xaridlarni tashkil etish bo'limi tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomilining turlari bo'yicha tashkil etish hamda o'tkazishda ishchi organ hisoblanadi.

Ishchi organ quyidagilar vazifalarni amalga oshiradi:

elektron kooperatsiya portalida ma'lumotnomalarni shakllantiradi;

elektron kooperatsiya portali va elektron do'konda ishtirokchilarning ofertasini tanlaydi va auksion to'g'risidagi e'lonlarni joylashtiradi;

to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran besh ish kuni ichida portalga to'g'ri va aniq joylashtiradi hamda mintaqaviy markazlar tomonidan portalga joylashtirilgan ma'lumotlarni monitoring qiladi;

xarid tartib-taomilini tashkil etishda ishtirok etadi;

xarid tartib-taomillari o'tkazilishi to'g'risida e'lon matnlarini va xarid hujjatlarini (tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari hujjatlari) rasmiylashtiradi;

portal yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida o'tkazilishi rejalashtirilgan davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlarni joylashtiradi va monitoring olib boradi;

tanlash, tender va va ikki bosqichli davlat xaridlari taklifining malakaga oid qismi bo'yicha o'rganish o'tkazadi, bunda, xarid komissiyasi yoki baholovchi guruh tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin;

xaridiga doir tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini va texnik topshiriqlarni kompleks ekspertizadan o'tkazadi;

Xarid komissiyasi yig'ilishlarini tashkil qiladi;

xarid qilish tartib-taomili yakunlari bo'yicha choraklik hisobotlarni shakllantiradi;

tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlariga oid barcha hujjatlarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda saqlanishi uchun Bank arxiviga topshiradi.

35. Tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari natijasiga ko'ra g'olib aniqlangandan so'ng, bu to'g'risida Mas'ul bo'linma tomonidan tashabbuskor bo'linma yozma ravishda xabardor qilinadi.

36. Ma'muriy-xo'jalik departamenti, Xaridlar boshqarmasi, Xaridlarni tashkil etish bo'limi tomonidan xarid qilish tartib-taomillari natijasida shakllangan shartnomalarni ijrosini ta'minlash uchun Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlar boshqarmasi, Yuridik majburiyatlarni rasmiylashtirish va monitoring bo'limiga yo'naltiradi.

37. Ma'muriy-xo'jalik departamenti, Xaridlar boshqarmasi, Yuridik majburiyatlarni rasmiylashtirish va monitoring bo'limi tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi natijasida shakllangan shartnomalar ijrosi bilan ishlash hamda tashkil etishda ishchi organ hisoblanadi.

Ishchi organ quyidagilar vazifalarni amalga oshiradi:

xarid qilish tartib-taomillari natijasida shakllangan shartnomalar ijrosi bilan shug'ullanadi;

tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetib kelishini va hududlarga borishini monitoring qiladi;

xarid qilish tartib-taomillari natijasida shakllangan shartnomalarni va shartnoma bilan bog'liq tegishli hujjatlarni to'lov uchun shartnoma shakllangan sanadan boshlab bir ish kuni mobaynida Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamentiga taqdim qiladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

xarid qilish tartib-taomillari natijasida shakllangan shartnomalar ijrosi yuzasidan yetkazib beruvchilar bilan muzokaralar olib boradi va ularga murojaatlar yo'llaydi;

hisob-faktura va dalolatnomalarni tasdiqlash;

zarur hollarda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilib olishda hisob-faktura va dalolatnomalarni tegishli tarkibiy bo'linmalarga, mintaqaviy markazlarga kelishish uchun elektron hujjat aylanuvi dasturi orqali yuboradi;

maxsus savdo maydonchalaridagi elektron (birja) savdolari natijalariga ko'ra shakllangan shartnomalar ijrosini platforma orqali yakunlaydi.

5-bob. Xarid komissiya faoliyatini tashkil etish

38. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari g'olibini tanlash to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan kollegial organ hisoblanadi.

39. Xarid komissiyasi Bank huzurida doimiy faoliyat ko'rsatadi hamda Bank boshqaruvining tegishli qarori bilan markaziy apparatda shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

40. Xarid komissiyasi tarkibi, kichik xarid komissiya kamida besh nafar a'zodan, katta xarid komissiya kamida yetti nafar a'zodan iborat bo'ladi, shuningdek, olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

41. Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xaridlar tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari orqali amalga oshirilganda ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda g'olibni (g'oliblarni) aniqlashdan iborat.

42. Bank tizimida xaridlar tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari orqali amalga oshirilganda xarid boshlang'ich narxi:

bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravaridan kam bo'lgan xaridlar Bank markaziy apparati kichik xarid komissiyasi tomonidan;

bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravari va undan yuqori bo'lgan xaridlar Bank markaziy apparati katta xarid komissiyasi tomonidan Qonun va mazkur tartibda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

43. Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflarni qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

to'lov shakllari va zakalat mablag'lar miqdorini belgilaydi;

dastlabki malaka tanlovini o'tkazadi;

xarid qilish tartib-taomillarini amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiradi;

tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilari takliflarini ko'rib chiqadi va xarid hujjatlariga muvofiq baholaydi;

g'olib ishtirokchini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni aniqlaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi;

zarur hollarda:

dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilari texnik taklifini baholash uchun tashabbuskor bo'linmalardan xulosa oladi;

texnik baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

44. Xarid komissiyasining ishiga komissiya raisi rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni hamda xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek, xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini o'rinbosari bajaradi.

45. Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning mas'ul kotibi tashkil etadi. Xarid komissiyasining mas'ul kotibi quyidagi vazifalarni bajaradi:

xarid komissiya majlislarini tashkil qiladi;

tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari bo'yicha xarid hujjatlarini tayyorlaydi va kelishish uchun Xarid komissiyasiga taqdim qiladi;

kelishilgan xarid hujjatlari bo'yicha e'lonlarni portalga joylashtiradi;

tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini xarid qilish hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

zarur hollarda tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilarining texnik taklifini baholash uchun tashabbuskor bo'linmalarga xulosa taqdim etish yuzasidan murojaat qiladi;

zarur hollarda Xarid komissiya qaroriga ko'ra tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilari takliflari yuzasidan belgilangan tartibda tushuntirishlar so'raydi;

tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini portalga kiritadi.

46. Xarid komissiyasi Bank tizimida tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish yuzasidan ruxsat berish bo'yicha qarorlarida ishtirok etmaydi.

6-bob. Xaridlar bilan bog'liq shartnomalar va ularga qo'shimcha kelishuvlar

1-§. Markaziy apparatda xaridlar bilan bog'liq shartnomalar loyihasini kelishish va qo'shimchalar (o'zgartirish) kiritish tartibi

47. Markaziy apparatda tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari natijasiga ko'ra g'olib deb topilgan korxonalar va tashkilotlar bilan hamda xaridlar yuzasidan to'g'ridan to'g'ri tuziladigan shartnomalar, shuningdek, shartnomalarga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarning loyihalari qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan Yuridik departamenti tomonidan xulosa berish orqali huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkaziladi.

Bunda, shartnomaning Bankda qoladigan nusxasining har bir betida (oxirgi betidagi vizasi yoniga F.I.Sh. yozilishi shart) tashabbuskor bo'linma rahbari vizasi bo'lishi lozim.

48. Tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari natijalariga doir shartnoma tanlash va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida hamda o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida qonunchilikda belgilangan muddatlarda tuziladi.

49. Xaridlar bilan bog'liq shartnomalarni rasmiylashtirishda, shuningdek, bu turdagi shartnomalarga o'zgartirish (qo'shimcha)lar kiritish, to'lovlarni amalga oshirish va monitoring olib borishda quyidagi bo'linmalarga javobgarlik yuklatiladi:

shartnoma va ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarning loyihalari qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun o'rnatilgan muddatlarda Yuridik departamentiga taqdim etilmagan hollarda javobgarlik tashabbuskor bo'linma zimmasiga, bundan maxsus savdo maydonchalaridagi elektron (birja) savdolari natijalariga ko'ra shakllangan shartnomalar mustasno;

shartnoma va ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarning loyihalari qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan to'g'ri ekspertizadan o'tkazilganligi bo'yicha javobgarlik Yuridik departamenti zimmasiga, bundan maxsus savdo maydonchalaridagi elektron (birja) savdolari natijalariga ko'ra shakllangan shartnomalar mustasno;

shartnomalarni asoslantirilgan shartlar asosida rasmiylashtirish va tuzish bo'yicha javobgarlik tashabbuskor bo'linma zimmasiga, bundan maxsus savdo maydonchalaridagi elektron (birja) savdolari natijalariga ko'ra shakllangan shartnomalar mustasno;

shartnoma bo'yicha to'lovlarni to'g'ri va belgilangan muddatda amalga oshirish Bosh amaliyotlar boshqarmasi Buxgalteriya hisobi va hisobati departamenti zimmasiga;

shartnoma shartlari bajarilishi yuzasidan monitoring ishlarini amalga oshirish bo'yicha javobgarlik tashabbuskor bo'linma va Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlar boshqarmasi Yuridik majburiyatlarni rasmiylashtirish va monitoring bo'limi zimmasiga yuklatiladi.

50. Bankning xaridlar bo'yicha import shartnomalari va ularga qo'shimcha bitimlarni ro'yxatga olish hamda hisobini yuritish Tranzaksion banking departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

51. Xaridlar bilan bog'liq bo'lgan shartnomalarga o'zgartirish (qo'shimcha)lar kiritish (shuningdek, shartnomaning ilovalariga) ushbu shartnomalarni rasmiylashtirish mexanizmi kabi amalga oshiriladi. Shartnomaga rejalashtirilgan o'zgartirish (qo'shimcha)larni kiritish ishlari tashabbuskor bo'linma tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

tashabbuskor bo'linma faoliyatini muvofiqlashtiruvchi boshqaruv raisi, rais o'rinbosari, kompleks rahbari nomiga asoslantirilgan bildirishnoma tayyorlanadi va taqdim etiladi;

o'zgartirish (qo'shimcha)lar kiritiladigan hujjatlar matni loyihasi (jumladan, shartnomalar hamda ularning ilovalari, texnik topshiriq va boshqa xaridga oid hujjatlar) tayyorlanadi;

tashabbuskor bo'linma faoliyatini muvofiqlashtiruvchi boshqaruv raisi, rais o'rinbosari, kompleks rahbarining vizasi mavjud bo'lgan bildirishnoma, o'zgartirish (qo'shimcha)lar loyihasi, texnik topshiriq va boshqa taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar tashabbuskor bo'linma tomonidan Mas'ul bo'linmaga taqdim etiladi;

xarid bilan bog'liq shartnomaga o'zgartirish (qo'shimcha)lar kiritish ishlari mazkur tartibning 11-bandida belgilangan vakolatlar taqsimotiga muvofiq amalga oshiriladi.

52. Markaziy apparatda xarid qilish tartib-taomillari bilan bog'liq shartnomalar Bank boshqaruvi raisi, rais o'rinbosarlari, kompleks rahbarlari hamda shartnomalarni imzolash vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar tomonidan imzolanadi.

2-§. Mintaqaviy markazlar hamda bank xizmatlari markazlarida xaridlar bilan bog'liq shartnomalar loyihasini kelishish va qo'shimchalar (o'zgartirish) kiritish tartibi

53. Bank mintaqaviy markazlari va bank xizmatlari markazlarida mazkur tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan ro'yxat bo'yicha to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan xaridlar yuzasidan tuziladigan shartnomalar loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi va kelishiladi.

54. Bank mintaqaviy markazlari va bank xizmatlari markazlarida xaridlar yuzasidan to'g'ridan to'g'ri tuziladigan shartnomalarning loyihalari mintaqaviy markaz va bank xizmatlari markazlarida yuridik xizmati vazifasi yuklatilgan shaxs tomonidan viza qo'yish (viza yoniga F.I.Sh. yozilishi shart) yoki yozma xulosa berish orqali huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi va shartnoma o'rnatilgan tartibda bank nomidan imzolash vakolati berilgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi.

55. Bank mintaqaviy markazlari va bank xizmatlari markazlarida xaridlar bilan bog'liq shartnomalarni rasmiylashtirishda, shuningdek, bu turdagi shartnomalarga o'zgartirish (qo'shimcha)lar kiritish, to'lovlarni amalga oshirish va monitoring olib borishda quyidagi bo'linmalarga javobgarlik yuklatiladi:

shartnoma va ularga kiritiladigan o'zgartirish hamda qo'shimchalarning loyihalari qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan huquqiy ekspertizadan o'tkazish bo'yicha javobgarlik mintaqaviy markazlar va bank xizmatlari markazlarida yuridik xizmati vazifasi yuklatilgan shaxs zimmasiga;

shartnomaga asoslantirilgan tarzda o'zgartirish (qo'shimcha)lar kiritish yuzasidan javobgarlik mintaqaviy markaz boshlig'i va Moliya bo'limi hamda bank xizmatlari markazi rahbari zimmalariga;

shartnoma bo'yicha to'lovlarni to'g'ri va belgilangan muddatda amalga oshirish Bosh amaliyotlar boshqarmasi Buxgalteriya hisobi va hisobati departamenti zimmasiga;

shartnoma shartlari bajarilishi yuzasidan monitoring ishlarini amalga oshirish bo'yicha javobgarlik mintaqaviy markaz tashabbuskor bo'linmasi va bank xizmatlari markazi rahbari zimmasiga yuklatiladi.

56. Xaridlar bilan bog'liq bo'lgan shartnomalarga o'zgartirish (qo'shimcha)lar kiritish (shuningdek, shartnomaning ilovalariga) ushbu shartnomalarni rasmiylashtirish mexanizmi kabi amalga oshiriladi. Shartnomaga rejalashtirilgan o'zgartirish (qo'shimcha)larni kiritish ishlari mintaqaviy markaz tashabbuskor bo'linmasi tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

mintaqaviy markaz tashabbuskor bo'linmasi tomonidan ushbu o'zgartirish (qo'shimcha)larni kiritish zarurligi asoslantirilgan holda mintaqaviy markaz boshlig'iga bildirishnoma kiritiladi;

o'zgartirish (qo'shimcha)lar kiritiladigan hujjatlar matni loyihasi (jumladan, shartnomalar hamda ularning ilovalari, texnik topshiriq va boshqa xaridga oid hujjatlar) tayyorlanadi;

mintaqaviy markaz boshlig'i (o'rinbosari)ning imzosi mavjud bo'lgan bildirishnoma, o'zgartirish (qo'shimcha)lar loyihasi, texnik topshiriq va boshqa taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar tashabbuskor bo'linma tomonidan mintaqaviy markazning Moliya bo'limiga taqdim etiladi;

mintaqaviy markazga mazkur tartibning 11-bandida belgilangan vakolatlar doirasida markaziy apparat tomonidan ruxsat berilgandan so'ng, xarid bilan bog'liq shartnomaga o'zgartirish (qo'shimcha)lar kiritish ishlari amalga oshiriladi.

57. Bank mintaqaviy markazi tasarrufidagi bank xizmatlari markazi o'z vakolati doirasida tuzilgan shartnomalarga o'zgartirish (qo'shimcha)larni mintaqaviy markaz bilan kelishgan holda mustaqil amalga oshiradi.

58. Bank mintaqaviy markazi va bank xizmatlari markaziga ruxsat talab qilinadigan hollarda Bank markaziy apparatining yozma ruxsati, shuningdek, mintaqaviy markazlar va bank xizmatlari markazlarida yuridik xizmati vazifasini bajarish vazifasi yuklatilgan shaxsning (xodimning) vizasi yoki huquqiy xulosasi mavjud bo'lmagan hollarda, shartnomalarni tuzish hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish man etiladi va bunda javobgarlik mintaqaviy markaz boshlig'i va Moliya bo'limi hamda bank xizmatlari markazi rahbariga yuklatiladi.

7-bob. Xarid qilish tartib-taomillari natijasida xarid qilingan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilib olish

1-§. Markaziy apparatda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilib olish mexanizmi

59. Markaziy apparatda xarid qilingan tovarlarni qabul qilib olishda Mas'ul bo'linma va ombor mudiri ishtirokida qabul qilib olinadi yoki qabul qilish rad etiladi.

60. Zarur hollarda xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) predmetida kompyuterlar, serverlar, elektron va optik uskunalar kabilar mavjud bo'lgan taqdirda, qo'shimcha ravishda Informatsion texnologiyalar kompleksidan mas'ul xodimlar tovarlarni qabul qilib olishda ishtirok etadi.

61. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) predmetidan kelib chiqib, Mas'ul bo'linma so'roviga ko'ra Ma'muriy-xo'jalik departamentini nazorat qiluvchi rais o'rinbosari (kompleks rahbari)ning farmoyishiga asosan qabul qilish komissiyasi tuzilishi mumkin.

62. Qabul qilib olishda tashabbuskor bo'linma va (yoki) Informatsion texnologiyalar kompleksidan mas'ul xodim va (yoki) qabul qilish komissiyasi ishtirok etganda Mas'ul bo'linma qabul qilingan tovarlar bo'yicha yetkazib beruvchi tomonidan yuborilgan elektron hisob-fakturani qog'ozga chop etadi va pastki qismiga barcha qatnashchilar tomonidan viza qo'yiladi (vizasi yoniga F.I.Sh. yozilishi shart) yoki elektron hujjat aylanuvi dasturi orqali barcha qatnashchilar tomonidan elektron kelishiladi. Shundan so'ng, elektron hisob-faktura Mas'ul bo'linma vazifa yuklatilgan xodimlar tomonidan elektron shaklda tasdiqlanadi.

63. Markaziy apparatda xarid qilingan ishlar, xizmatlar va nomoddiy aktivlarni qabul qilishda tashabbuskor bo'linma tomonidan Mas'ul bo'linmaga bajarilgan ishlar dalolatnomasi hamda boshqa tegishli hisobotlarning asl nusxasi taqdim qilinadi.

64. Xarid qilingan dasturiy mahsulotlarni qabul qilishda qo'shimcha ravishda Dasturiy texnologiyalar departamentidan mas'ul xodimlar ishtirok etadi.

65. Elektron bajarilgan ishlar dalolatnomasi tashabbuskor bo'linma, Mas'ul bo'linma va boshqa ishtirokchilar tomonidan elektron hujjat aylanuvi dasturi orqali elektron kelishiladi, boshqa tegishli hisobotlarning pastki qismiga tashabbuskor bo'linma rahbari va mas'ul xodimlari tomonidan viza qo'yiladi (vizasining yoniga F.I.Sh. yozilishi shart). Shundan so'ng, elektron bajarilgan ishlar dalolatnomasi (hisob-faktura) Mas'ul bo'linma vazifa yuklatilgan xodimlar tomonidan elektron shaklda tasdiqlanadi.

66. Markazlashgan xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'ridan to'g'ri mintaqaviy markaz yoki ularning tasarrufidagi bank xizmatlari markazlariga yetkazib berilganda mintaqaviy markazda Moliya bo'limi, bank xizmatlari markazida markaz boshlig'i tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilib oladi va hisob-faktura yoki bajarilgan ishlar dalolatnomasini elektron hujjat aylanuvi dasturi orqali elektron kelishiladi. Shundan so'ng, elektron bajarilgan ishlar dalolatnomasi (hisob-faktura) Mas'ul bo'linma vazifa yuklatilgan xodimlar tomonidan elektron shaklda imzolanadi.

Bunda, zaruratga ko'ra mintaqaviy markaz yoki ularning tasarrufidagi bank xizmatlari markazlari qabul qilganligi bo'yicha tegishli hujjatlarni (dalolatnoma, suratlar va boshqalar) markaziy apparat Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlar boshqarmasi Yuridik majburiyatlarni rasmiylashtirish va monitoring bo'limiga elektron hujjat aylanuvi dasturi ("Send Me" yoki boshqa) orqali elektron imzosi bilan tasdiqlagan holda yuboradi.

2-§. Mintaqaviy markazlarda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilib olish mexanizmi

67. Bank mintaqaviy markazida mazkur tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan ro'yxat bo'yicha to'g'ridan to'g'ri shartnomalar orqali xarid qilingan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilib olishda mintaqaviy markaz boshlig'i yoki ishonchnoma berilgan mas'ul xodim yoki bank xizmatlari markazi rahbari yoxud uning o'rinbosari mas'ul hisoblanadi.

Bunda zarur hollarda hisob faktura yoki bajarilgan ishlar dalolatnomasi elektron hujjat aylanuvi dasturi orqali mintaqaviy markaz tashabbuskor bo'linmasi yoki bank xizmatlari markazi rahbari tomonidan elektron kelishiladi.

68. Mintaqaviy markaz boshlig'i yoki ishonchnoma berilgan mas'ul xodim yoki bank xizmatlari markazi rahbari yohud uning o'rinbosari tomonidan mazkur tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan ro'yxat bo'yicha to'g'ridan to'g'ri shartnomalar orqali xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilgandan so'ng, shartnoma shartlariga asosan ko'zdan kechiriladi va elektron bajarilgan ishlar dalolatnomasi (hisob-faktura) elektron shaklda tasdiqlanadi yoki rad etiladi.

8-bob. Xarid jarayonlarida kontragentlarni o'rganish tartibi

69. Markaziy apparat va mintaqaviy markazlarida kontragentlarni o'rganish xaridlarning to'g'ridan to'g'ri shartnomalar (yagona yetkazib beruvchilar bundan mustasno), tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari turi orqali amalga oshirilganda shartnoma tuzishdan va g'olibni aniqlashdan avval qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

70. Markaziy apparatda kontragentlarni o'rganish Xarid komissiya mas'ul kotibi, Ichki nazorat va komplayens departamenti hamda Bosh amaliyotlar boshqarmasi Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlar boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

71. Mintaqaviy markazlarda kontragentlarni o'rganish mintaqaviy markaz Moliya bo'limi hamda Ichki nazorat va komplayens xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

72. Ichki nazorat va komplayens departamenti tomonidan "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati" talablaridan kelib chiqib kontragentlar o'rganiladi. Bunda, shartnoma bir yildan ko'proq muddat doirasida amal qilsa, kontragent yilda bir marotaba qayta tekshiruvdan o'tkaziladi.

73. Bank tizimida xaridlar to'g'ridan to'g'ri shartnomalar orqali amalga oshirilganda (yagona yetkazib beruvchilar bundan mustasno) shartnoma tuzishdan avval:

markaziy apparatda Bosh amaliyotlar boshqarmasi Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlar boshqarmasi tomonidan Ichki nazorat va komplayens departamentiga;

mintaqaviy markazlarda Moliya bo'limi tomonidan mintaqaviy markaz Ichki nazorat va komplayens xizmatiga shartnoma bo'yicha zarur hujjatlar kontragentni o'rganish uchun taqdim etiladi.

74. Markaziy apparatda xaridlar tanlash va tender orqali amalga oshirilganda g'olibni aniqlashdan avval Xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan Ichki nazorat va komplayens departamentiga tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilari to'g'risida umumiy ma'lumotni taqdim qilinadi.

75. Ichki nazorat va komplayens departamenti hamda mintaqaviy markazlarda Ichki nazorat va komplayens xizmati tomonidan kontragentlarni o'rganish quyidagilar bo'yicha amalga oshiriladi va aniqlanadi:

imtiyozli soliq rejimidagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar yoki hududlarda (offshor hududlar) ishtirokchilar va ularning bank hisobraqamlari ro'yxatdan o'tkazilganligi yoki o'tkazilmaganligi;

ishtirokchilar Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruhning (FATF) ro'yxatida mavjud yoki mavjud emasligi;

ishtirokchilar va ularning banklarida sanksiyaviy cheklovlarning mavjud yoki mavjud emasligi;

manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari mavjud yoki mavjud emasligi va boshqa holatlar.

76. Kontragentlarni o'rganish natijalari yuzasidan uch ish kuni mobaynida markaziy apparatda Ichki nazorat va komplayens departamenti tomonidan so'rovlar bo'yicha Xarid komissiya mas'ul kotibiga va Bosh amaliyotlar boshqarmasi Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlar boshqarmasiga, mintaqaviy markazlarda Ichki nazorat va komplayens xizmati tomonidan Moliya bo'limiga tegishli xulosa beriladi.

77. Bank tizimida xaridlar to'g'ridan to'g'ri shartnomalar orqali amalga oshirilganda (yagona yetkazib beruvchilar bundan mustasno) shartnoma tuzishdan avval markaziy apparatda Bosh amaliyotlar boshqarmasi Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlar boshqarmasi, mintaqaviy markazlarda Moliya bo'limi tomonidan yetkazib beruvchilar quyidagilar bo'yicha mustaqil o'rganiladi:

ishtirokchilarning moliyaviy hisobotlari, shuningdek, soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud emasligi;

ta'sis hujjatlari va faoliyatining qonuniyligi;

yetkazib beruvchilarning bank bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning ijro etilmaganligi yoki lozim darajada ijro etilmaganligi bo'yicha suda ishi ko'rilganligi;

ishlab chiqarish quvvati va ish tajribasi;

ishtirokchilarning maxsus axborot portalida insofsiz ijrochilar reyestrda, shuningdek, to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i miqdorini kamaytirish huquqini suiiste'mol qilgan korxonalar ro'yxatida mavjud yoki mavjud emasligi;

manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari mavjud emasligi;

ishtirokchi faoliyatning litsenziyalanadigan turi bilan shug'ullanganda, uning "Litsenziya" axborot tizimi yoki litsenziyalovchi organlarning rasmiy saytlaridagi litsenziyalar reyestrda mavjudligi.

78. Markaziy apparatda xaridlar tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari orqali amalga oshirilganda g'olibni aniqlashdan avval Xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan ishtirokchilar quyidagilar bo'yicha mustaqil o'rganiladi va natijalari Xarid komissiyasiga kiritiladi:

ishtirokchilarning moliyaviy hisobotlari, shuningdek, soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud emasligi;

ta'sis hujjatlari va faoliyatining qonuniyligi;

yetkazib beruvchilarning bank bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning ijro etilmaganligi yoki lozim darajada ijro etilmaganligi bo'yicha suda ishi ko'rilganligi;

ishlab chiqarish quvvati va ish tajribasi;

ishtirokchilarning maxsus axborot portalida insofsiz ijrochilar reyestrda, shuningdek, to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i miqdorini kamaytirish huquqini suiiste'mol qilgan korxonalar ro'yxatida mavjud yoki mavjud emasligi;

manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari mavjud emasligi;

ishtirokchi faoliyatning litsenziyalanadigan turi bilan shug'ullanganda, uning "Litsenziya" axborot tizimi yoki litsenziyalovchi organlarning rasmiy saytlaridagi litsenziyalar reyestrda mavjudligi.

79. To'g'ridan to'g'ri shartnomalar (yagona yetkazib beruvchilar bundan mustasno) bo'yicha kontragentlarni o'rganish jarayonidan muvaffaqiyatli o'tmagan yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzilmaydi.

80. Kontragentlarni o'rganish jarayonidan muvaffaqiyatli o'tmagan tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilarning takliflari Xarid komissiya tomonidan rad etiladi.

81. Markaziy apparatda xarid jarayonlarini kuzatish va kontragentlarni o'rganish maqsadida markaziy apparat Xarid komissiya tarkibiga ovoz berish huquqsiz, veto huquqi bilan kuzatuvchi sifatida Ichki nazorat va komplayens departamenti Komplayens boshqarmasining mas'ul xodimi bo'lishi shart.

82. Kontragentlarni o'rganish jarayoni davriy tarzda Ichki nazorat va komplayens departamenti tomonidan monitoring qilib boriladi.

9-bob. Qo'shimcha qoidalar

83. Markaziy apparat tomonidan bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi, majburiy tartibda ushbu xarid bo'yicha tender hujjatlariga "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning (keyingi o'rinlarda – Markaz) ijobiy xulosasi olingandan so'ng amalga oshiriladi.

84. Markaziy apparat tomonidan zarur hollarda Bank boshqaruvi yoxud Xarid komissiya qarori bilan ixtiyoriy ravishda bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining besh ming baravaridan yigirma besh ming baravarigacha bo'lgan tanlash hujjatlarining texnik topshiriqlarini ekspertizadan o'tkazish uchun Markazga kiritishi mumkin.

85. Kafolat davrida tovar (ish, xizmat)lar ishdan chiqqan (buzilgan va boshqa) holatlarda kafolat beruvchi hisobidan ta'mirlanishi (almashtirilishi yoki kamchilikni bartaraf etilishi)ni tashabbuskor bo'linma qat'iy nazorat qilib boradi.

86. Bank mintaqaviy markazlari xarid jarayonida xarid qilish tartib-taomillarini va tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning boshlang'ich narxini qonunchilikka muvofiq mustaqil belgilaydi hamda bu bo'yicha javobgar hisoblanadi.

87. Mas'ul bo'linma Bank tizimida xarid qilish tartib-taomillarini davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtiradi hamda malakaga oid ko'rsatmalar beradi.

88. Mazkur tartib fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnoma asosida mutaxassisga bo'lgan talabni aniqlash va ularni shartnoma asosida ishga yollash hamda qurilish sohasidagi xaridlarni tashkil etish va amalga oshirish jarayonlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

10-bob. Yakuniy qoidalar

89. Mas'ul bo'linma Bankda xaridlar jarayoni ustidan monitoring olib borish, istalgan vaqtda istalgan tarkibiy bo'linmadan xaridlar bilan bog'liq hujjatlarni talab qilib o'rganib chiqish vakolatiga ega bo'lib, markaziy apparat va mintaqaviy markazlar tomonidan mazkur tartib talablariga zid xatti-harakatlari to'g'risida asosli faktlar yoki shubha paydo bo'lganda Ichki nazorat va komplayens departamenti xabardor qiladi.

90. Ushbu tartib ishtirokchilari korrupsiyaning har qanday ko'rinishi va shakliga nisbatan murosasizlik tamoyiliga rioya qilishlari shart.

91. Bank xodimlarini "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati" va qonunchilik talablariga zid bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun jalb qilish taqiqlanadi.

92. Operatsion risklarni oldini olish maqsadida xarid qilish tartib-taomilini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar har qanday manfaatlar to'qnashuvi ko'rinishlarining oldini olishi va xaridlari sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasligi shart.


93. Mazkur tartib talablari amaldagi shu sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlari normalari asosida tayyorlangan bo'lib, ushbu hujjatning qo'llanishi natijasida kelib chiqqan huquqiy munosabatlar tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

94. Xalq banki xodimlari o'zlarining xizmat majburiyatlarini bajarishda va Xalq bankining manfaatlarini ifodalashda "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va bankka aloqador shaxslarni aniqlash" bo'yicha nizomda belgilangan tamoyillarga amal qilishlari, shuningdek, manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan o'zlarini saqlashlari shart.

95. Mazkur tartib talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

96. Mazkur tartib Bank boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan kunning ertasidan boshlab kuchga kiradi.

**Ma'muriy-xo'jalik
departamenti direktori**


A. Erkinov





O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat
Xalq banki tizimida xaridlarni tashkil etish va
amalga oshirish tartibiga
1-ilova

**Bankning mintaqaviy markazlari va bank xizmatlari markazlari tomonidan
to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)
RO'YXATI**

T/r	To'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)	Shartnoma tuzish vakolati
1.	Bank faoliyatini amalga oshirish uchun kommunal xizmatlar bilan bog'liq xaridlar	Bank xizmatlari markazi
2.	Turar yoki noturar joyni (inshootni) xarid qilish yoki ijaraga olish, shuningdek, bank qurilmalari uchun maxsus joylarni ijaraga olish	Bank xizmatlari markazi, mintaqaviy markaz
3.	Davlat buyurtmachisi faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq xizmat safarlari uchun va boshqa holatlardagi chiptalar (avia, temir yo'l va yo'nalish transportiga)	Mintaqaviy markaz
4.	Davlat buyurtmachisi faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq xizmat safarlari va boshqa holatlardagi yashash xarajatlari	Mintaqaviy markaz
5.	Avval tuzilgan shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, internet va teleradiouzatish xizmatlari bo'yicha xaridlar	Mintaqaviy markaz
6.	Sport, madaniy-ommaviy tadbirlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar, anjumanlar, seminarlar va o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish hamda o'tkazish uchun binolar, inshootlar va asbob-uskunalarini ijaraga olish	Mintaqaviy markaz
7.	Benzin, suyultirilgan va siqilgan gaz, dizel yoqilg'isi va ko'mir mahsulotlari	Bank xizmatlari markazi, mintaqaviy markaz
8.	Xizmat avtotransporti vositalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	Mintaqaviy markaz
9.	O'zbekiston Respublikasi ishlab chiqaruvchilari yoki ularning rasmiy dilerlari va distribyutorlaridan xarid qilingan yangi avtotransport vositalari	Mintaqaviy markaz
10.	Narxi (tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi	Mintaqaviy markaz
11.	Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi	Mintaqaviy markaz

Izoh: ushbu ro'yxat yakuniy emas va qiyi tarmoqlarning ehtiyojidan kelib chiqib, qonunchilikda belgilangan tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik
tjorat Xalq banki boshqaruvining
2025-yil 20 noyabr dagi
120/6 -sonli qaroriga
2-ilova

**Xalq banki markaziy apparati katta Xarid komissiyasi
TARKIBI**

Komissiya raisi	Boshqaruv raisi o'rinbosari*
Komissiya raisi o'rinbosari	Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori
Komissiya a'zolari:	Ma'muriy-xo'jalik departamenti direktori Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish departamenti direktori Bank tarmoqlarini boshqarish departamenti direktori Yuridik departamenti direktori o'rinbosari Moliyaviy hisobotlar va nazorat departamenti Rejalashtirish va moliyaviy monitoring boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
Komissiya mas'ul kotibi	Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlar boshqarmasi boshlig'i

Izoh:

Moliya yo'nalishiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi bank boshqaruvi raisi o'rinbosari.*

Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek, boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etish mumkin.

Xarid komissiyasi a'zolaridan biri va mas'ul kotibi ma'lum sabablar (mehnatga layoqatsizlik, mehnat ta'tili, xorijiy xizmat safari va boshqa ishga o'tsa)ga ko'ra ishida bo'lmaganda yoki egallab turgan lavozimidan ozod etilganda uning lavozimiga tayinlangan yoki vazifasini bajaruvchi xodim komissiya a'zosi (mas'ul kotib) hisoblanadi va mazkur xodimga belgilangan topshiriqlarni bajarish (shu jumladan, majlis bayonnomalarini imzolash) vazifasi yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik
 tijorat Xalq banki boshqaruvining
 2025-yil 20 noyabr dagi
1246sonli qaroriga
 3-ilova

**Xalq banki markaziy apparati kichik Xarid komissiyasi
 TARKIBI**

Komissiya raisi	Operatsiyalar kompleksi rahbari
Komissiya a'zolari:	Axborot texnologiyalari xizmatlari departamenti direktori
	Bank tarmoqlarini boshqarish departamenti Tarmoqlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i
	Ma'muriy-xo'jalik departamenti Ishlar boshqarmasi boshlig'i
	Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi va nazorati bo'limi boshlig'i
Komissiya mas'ul kotibi	Ma'muriy-xo'jalik departamenti Xaridlarni tashkil etish bo'limi boshlig'i

Izoh:

Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek, boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmochisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etish mumkin.

Xarid komissiyasi a'zolaridan biri va mas'ul kotibi ma'lum sabablar (mehnatga layoqatsizlik, mehnat ta'tili, xorijiy xizmat safari va boshqa ishga o'tsa)ga ko'ra ishda bo'lmaganda yoki egallab turgan lavozimidan ozod etilganda uning lavozimiga tayinlangan yoki vazifasini bajaruvchi xodim komissiya a'zosi (mas'ul kotib) hisoblanadi va mazkur xodimga belgilangan topshiriqlarni bajarish (shu jumladan, majlis bayonnomalarini imzolash) vazifasi yuklatiladi.